

**KONFERENSIYALAR UZ**

ANJUMANLAR PLATFORMASI

# **O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI**

**II RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY  
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

**IYUN, 2025-YIL**





# **O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA‘LIM ISTIQBOLLARI**

**II RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY  
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, iyun

**TOSHKENT-2025**

**ISBN 978-9910-09-204-6**

**O‘ZBEKISTON - 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI.** II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 138 bet.

**Elektron nashr:** <https://konferensiyalar.uz/uzbekistan-2030>

**Konferensiya tashkilotchisi:** “Scienceproblems Team” MChJ

**Konferensiya o‘tkazilgan sana:** 2025-yil, 23-iyun

**Mas’ul muharrir:**

Isanova Feruza Tulqinovna

**Annotatsiya**

Mazkur nashrda “O‘zbekiston — 2030: innovatsiya, fan va ta’lim istiqbollari” nomli II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi doirasida taqdim etilgan ilmiy maqolalar to‘plami jamlangan. Unda O‘zbekistonning turli oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, tarmoq tashkilotlari, mustaqil tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiyot, huquq, biologiya, tibbiyot va boshqa sohalarga oid maqolalar kiritilgan. Maqolalarda ilm-fanning zamonaviy yo‘nalishlari, innovatsion texnologiyalar, ta’lim islohotlari hamda barqaror taraqqiyotga oid masalalar muhokama qilingan. To‘plam akademik izlanishlar, amaliy tajribalar va ilmiy xulosalarni birlashtirgan holda, fanlararo integratsiyani chuqurlashtirish va ilmiy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsiya, fan va ta’lim, O‘zbekiston 2030, barqaror rivojlanish, ilmiy izlanishlar, fanlararo integratsiya, ilmiy hamkorlik, texnologik taraqqiyot, zamonaviy ta’lim.

**ISBN 978-9910-09-204-6**

**Barcha huqular himoyalangan.**

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

## MUNDARIJA

### FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI

*Kamolova Dilnavoz, Shomurodova Shahzoda*

PAST TEMPERATURALAR HOSIL QILISH VA GAZLARNI SUYULTIRISH METODLARI .....5-10

### TEXNIKA FANLARI

*Mirabdullayev Fayzullo, Tursunov Otabek*

5G TEXNOLOGIYASIDAGI XAVFSIZLIK MUAMMOLARINING TAHLILI ..... 11-18

*Tursunov Otabek, Shakarov Muhiddin*

ZAMONAVIY SIMMETRIK SHIFRLASH ALGORITMLARINI CHIZIQLI KRIPTOTHLILI ..... 19-27

### TARIX FANLARI

*Ergasheva Mohichexra*

ROSSIYA IMPERIYASI SIYOSATINING ZARAFSHON VOHASIDAGI ETNIK MUVOZANATGA

TA'SIRI: TARIXIY MANBALAR ASOSIDA TAHLIL ..... 28-31

*Oralov Dostonbek*

BIRINCHI JAHON URUSHINING TURKISTON O'LKASIDAGI IJTIMOY-SIYOSIY

JARAYONLARGA TA'SIRI ..... 32-35

### IQTISODIYOT FANLARI

*Арипова Анна*

ЦИФРОВИЗАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ

ЭФФЕКТИВНОСТИ СДЕЛОК СЛИЯНИЯ И ПОГЛОЩЕНИЯ ..... 36-40

*Шарипов Жамшид, Нуридинов Рамзидин*

СУНЬИЙ ИНТЕЛЛЕКТ: ТАЪЛИМ СИФАТИНИ ОШИРИШ ДРАЙВЕРИ ..... 41-48

*Авдошкина Олеся*

ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОДДЕРЖКА МАЛОГО БИЗНЕСА ЧЕРЕЗ КРЕДИТНЫЕ

ИНСТРУМЕНТЫ: НА ПРИМЕРЕ НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ ..... 49-56

*Azamatov Otabek*

PROBLEMS IN IMPROVING THE COMPETITIVENESS OF SMALL BUSINESSES AND PROPOSED

SOLUTIONS ..... 57-61

*Eraliyev Sardorjon*

AGROBIZNESDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY

USULLARI ..... 62-64

*Isomuxamedov Akbarjon*

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA XARAJATLAR VA DAROMADLAR HISOBINI TASHKIL ETISH

VA TAHLIL QILISH ..... 65-67

### FILOLOGIYA FANLARI

*Mamatova Feruza*

ANTROPOFENOMENLAR: LINGVOKOGNITIV, LINGVOMENTAL, DINAMIK VA STATIK

TURLARI ..... 68-73

*Yuldasheva Xurshida*

O'ZBEK ADABIY MEROSINING RAQAMLI PLATFORMALARDA O'RGANILISHI: IBN SINO

MISOLIDA ..... 74-76

<i>Abduvaliyeva Kamola</i> “SHAJARAYI TURK” ASARIDAGI ETNONIMLARNING GRAMMATIK TUZILISHI VA YASALISHI .....	77-82
---	-------

## **GEOGRAFIYA FANLARI**

<i>Abdirayimova Ozoda</i> SURXONDAYO VILOYATIDA BUDDIZM OBIDALARI ASOSIDA ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI .....	83-86
--	-------

## **YURIDIK FANLAR**

<i>Alimjonov Fayozbek</i> LITSENZIYALASH TUSHUNCHASI, TIZIMLARI VA ULARNING TARIXIY RIVOJLANISHI .....	87-91
---	-------

<i>Muradullayeva Sevinch</i> SOLIQ NAZORATINI AMALGA OSHIRISHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI .....	92-96
---	-------

<i>Abdullaeva Sabokhat</i> ISSUES OF IMPROVING INTERNATIONAL LEGAL MECHANISMS TO COMBAT TRANSNATIONAL CRIMES TARGETING CRYPTOASSETS .....	97-105
---	--------

## **PEDAGOGIKA FANLARI**

<i>Haqberdiyev Baxtiyor, Ismag'ilova Madinabonu, Imomnazarova Durdona</i> TASVIRIY SAN'AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI MUTAXASSISLARINING GRAFIK VA IJODIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH .....	106-108
---	---------

<i>Разикова Дилфуза</i> ЭФФЕКТИВНОСТЬ ДИАГНОСТИЧЕСКОГО ОЦЕНИВАНИЯ ПРИ ОБУЧЕНИИ СТУДЕНТОВ НЕФТЕГАЗОВОГО ПРОФИЛЯ .....	109-112
--	---------

<i>Salimova Bakhora</i> TEACHING METHODOLOGY: PRINCIPLES, APPROACHES, AND INNOVATIONS .....	113-117
--	---------

<i>Bakhronova Mahliyo</i> “DEVELOPING PROFESSIONAL COMPETENCE IN TEACHING ENGLISH” .....	118-123
---	---------

<i>Bekmuradova Gulnoza</i> TALABALARNI ILMIY-TADQIQOT ISHLARGA JALB ETISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK VA ILMIY-METODIK ASOSLARI .....	124-129
--	---------

<i>Rahimov Javohir</i> DUAL TA'LIMNI TASHKIL ETISHDA 4K VIDEO STUDIYASIDAN FOYDALANISH VA VIDEODARSLARNI YOZISHNING DASTURIY METODIK TA'MINOTI .....	130-133
--	---------

<i>Юсупова Сабохат</i> ЗНАЧЕНИЕ РАЗВИТИЯ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ В ПРОГРЕССЕ ОБЩЕСТВА .....	134-137
--	---------

## **SOLIQ NAZORATINI AMALGA OSHIRISHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI**

### **Muradullayeva Sevinch Maxsudjon qizi**

Toshkent davlat yuridik universiteti, Magistratura  
va sirtqi ta'lim fakulteti, Moliyaviy-huquqiy  
monitoring yo'nalishi magistranti

E-mail: [muradullaevas19@gmail.com](mailto:muradullaevas19@gmail.com)

Tel: +998 97 707 36 60

Toshkent, O'zbekiston

**Annotatsiya.** Mazkur tadqiqot ishida soliq nazorati tushunchasi, soliq nazorati tadbirlarining mohiyati va uning soliq-huquqiy munosabatlardagi ahamiyati, soliq nazoratining turlari hamda soliq nazoratini amalga oshirishga doir O'zbekiston Respublikasi qonunchiligining rivojlanish bosqichlari.

**Kalit so'zlar:** soliq nazorati, soliq tekshiruvlari, soliq monitoringi, kameral soliq tekshiruvi, sayyor soliq tekshiruvi, soliq auditi.

---

## **THEORETICAL AND LEGAL BASIS OF IMPLEMENTING TAX CONTROL**

### **Muradullayeva Sevinch Makhsudjon qizi**

Tashkent State Law University, Faculty of  
Magistrates and Correspondence Education,  
Master's student in the field of  
Financial and Legal Monitoring  
Tashkent, Uzbekistan

**Abstract.** This research discusses the concept of tax control, the essence of tax control measures and their significance in tax and legal relations, types of tax control and the stages of development of the legislation of the Republic of Uzbekistan on the implementation of tax control.

**Key words:** tax control, tax audits, tax monitoring, in-house tax audit, mobile tax audit, tax audit.

---

**DOI:** <https://doi.org/10.47390/978-9910-09-204-6/uzb-17>

**Kirish:** Jahonda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash mamlakatlarning eng asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Buning uchun soliq ma'murchiligini takomillashtirish, soliq tizimida zamonaviy texnologiyalarni joriy qilib borish, soliq tekshiruvlarini amalga oshirishda inson omilini bartaraf qilish, soliq qonunchiligi buzilishlarini oldini olish va soliq to'lovchilar tomonidan o'z majburiyatlarini bajarmaslik yuzasidan davlat budjeti daromadlariga yetkazilgan zararlarni qoplashning ahamiyati ortib bormoqda. Amerika Qo'shma Shtatlari Oliy sudi sudyasi Oliver Vendel ta'biri bilan aytganda, soliqlar biz rivojlangan jamiyatda yashashimiz uchun to'lovdur [1]. Darhaqiqat soliqqa tortish davlatning muhim funksiyasi hisoblanadi. Soliqlar har qanday davlat shakllanishining asosiy manbayi sanaladi. Negaki, soliqlar davlat faoliyatining barcha yo'nalishlarini mablag' bilan ta'minlashning eng muhim vositasi bo'lib, bozor munosabatlarining rivojlanishida, davlatning iqtisodiy siyosatini amalga oshirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Soliqlar hisobidan davlat budjetiga kelib tushuvchi manbalarning asosiy qismi shakllanadi va jamiyat manfaatlari yo'lida foydalaniladi. Soliqlar

ommaviy xizmatlar, ya'ni yo'llar, mudofaa, sud, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamning nafaqasi va yana ko'plab davlatlarda ta'lim hamda sog'liqni saqlash tizimini yaxshilash uchun ham to'lanadi. Shu jihatdan aytishimiz mumkinki, soliqlarning asosiy funksiyasi fiskal, ya'ni davlat budjetini to'ldirish hisoblanadi. Davlat budjetiga tushgan mablag'lar davlat funksiyalarini amalga oshirish yo'lida sarf qilinadi. Albatta, davlat budjeti va maqsadli jamg'armalariga kelib tushuvchi to'lovlarning to'g'ri hisoblab chiqarilishi, to'lanilishi, soliq to'lovchilarni hisobga olish, soliqqa oid huquqbuzarliklarni aniqlash, soliqdan qochish yoki bo'yin tovlash holatlarini oldini olishda soliq nazorati tadbirlariga ehtiyoj seziladi. Ushbu tadqiqot ishida soliq nazorati, uning mamlakatimizda shakllanish tarixi, soliq nazoratining ahamiyati va mohiyati to'g'risida so'z boradi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya matni:** Soliq nazoratining mazmun-mohiyatini chuqurroq tushunish, undagi muammolarni bartaraf qilish maqsadida mazkur tadqiqot ishida birinchi navbatda soliq nazorati tushunchasi, uning mohiyati, yuridik tabiati va soliq nazoratining kelib chiqish tarixiga to'xtalib o'tamiz.

Soliq nazoratining dastlabki protitipi yaqinda shakllanib qolmagan, bu soliqlarning joriy etilishi bilan bir davrga borib taqaladi. Soliqlar joriy etilgan davrlardayoq soliqlarni undirish va uning ustidan nazorat qilish boshlangan. Biroq XIX-XX asrlarda soliq nazoratining hozirgi shakliga mos ko'rinishlari joriy etilgani ko'zga tashlanadi. Soliq nazoratining hozirgi shaklga yaqin ko'rinishlari birinchi bo'lib, dunyoning sanoatlashgan mamlakatlari bo'lgan Amerika qo'shma shtatlari, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya va Yaponiya kabi davlatlarda mavjud bo'lib, keyinchalik boshqa mamlakatlarda ham joriy etilgan. Biz quyida bir qancha davlatlar misolida soliq nazoratining shakllanish tarixi bilan tanishib chiqamiz.

Amerika qo'shma shtatlarida 1862 yilda "Daromad to'g'risida"gi qonun qabul qilinib, ushbu qonun asosida Ichki daromad (Internal Revenue) tashkilotiga (keyinchalik Ichki Daromad Xizmati deb o'zgartirildi) asos solindi va ushbu tashkilotga soliqlarni o'z vaqtida yig'ish shuningdek, soliq bilan bog'liq boshqa vazifalarni amalga oshirish yuklatildi [1]. XIX asrning 60-yillarida tashkil qilingan ushbu tashkilot bugungi kunda ham butun Amerika qo'shma shtatlari hududida soliq tekshiruvlarni o'tkazish, soliqlarni vaqtida yig'ish kabi boshqa soliq nazorati bilan bog'liq vazifalarni amalga oshirib kelmoqda.

Dunyoda o'zining geosiyosiy jihatdan mavqeyiga ega bo'lgan davlatlardan biri Rossiya Federatsiyasida ham soliq nazorati tadbirlari XX asrning oxirlarida joriy etilgan va ilk soliq nazorati tadbirlari amalga oshirilgan. Rus tadqiqotchisi E.N.Yelkenaning "Soliq tekshiruvining tarixi" nomli maqolasida Rossiyada soliq nazorati shakllaridan biri hisoblangan soliq tekshiruvlari XX asrning oxirlaridan boshlab amalga oshirilgani aytilgan [2].

O'zbekiston Respublikasida soliq nazorati tizimi rivojlanishi O'zbekiston mustamlaka bo'lgan davrga borib taqaladi. O'zbekistonda soliq nazorati tizimi mustamlaka sharoitida Rossiya Federatsiyasi ta'sirida rivojlandi. Shu sababli, O'zbekiston Respublikasida ham soliq nazoratining rivojlanishi XX asr oxirlariga borib taqaladi. O'rta Osiyo mamlakatlarida xonliklar davrida soliqlar natura va pul ko'rinishida yig'ilgan bo'lsa, Rossiya Federatsiyasi ta'sirida tovar-pul munosabatlari shakllanib, soliqlar endilikda faqat pul bilan to'lanadigan bo'lgan. 1867-yilda O'rta Osiyoda Turkiston general gubernatorligi tashkil etilib, 1889-yilda Turkiston general gubernatorligidagi viloyatlarda soliq inspektorlari instituti joriy etilgan. Soliq inspektorlarining vazifasi soliq nazorati bilan shug'ullanish hisoblangan [3]. SSSRda soliq siyosati markazlashgan

tarzda amalga oshirilib, mustamlaka qilingan hududlardagi soliq inspektorlariga katta vakolatlar berilgan. Soliq to‘lovlaridan bosh tortish mustamlaka boshqaruvi siyosatiga hamda uning yer-soliq sohasida chora-tadbirlarini buzishga yo‘naltirilgan qarshilik deb qabul qilingan [4]. Umuman olganda, O‘zbekistonda dastlabki soliq nazorati tadbirlarining shakllanishi mustamlaka siyosati bilan bog‘liq.

Soliq nazorati instituti xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan atroflicha o‘rganilgan bo‘lib, soliq nazorati tushunchasiga ular tomonidan turli xil ta’riflar berib o‘tilgan.

Xususan, F.Isayevaning fikricha, soliq nazorati – soliq qonunchiligiga to‘liq rioya etilishi, soliqlar va budjetdan tashqari maqsadli jang‘armalarga to‘lovlarni o‘z vaqtida va to‘liq undirilishi, to‘g‘ri hisoblanishi ustidan soliq organlari tomonidan olib boriladigan nazoratdir [5]. Soliq nazorati soliq huquqi sohasining shunday institutiki, soliq nazorati tadbirlaridan ko‘zlangan asosiy maqsad soliq to‘lovchilar tomonidan soliqqa oid qonun hujjatlariga amal qilish, belgilangan soliq to‘lovlarini o‘z vaqtida to‘lash, turli xil huquqbuzarliklarni oldini olish hisoblanadi.

Soliq nazorati A.Advokatovanning nazdida, soliq ma‘muriyatchiligi tizimining ajralmas qismi sifatida, jamiyatning barcha jabhalarida davlat oldida turgan muammolarni hal etishni, shuningdek, davlatning moliyaviy resurslarini eng samarali shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanishning huquqiy mexanizmini takomillashtirish uchun yo‘nalishlar va yo‘llarni ta‘minlovchi davlatning moliyaviy siyosatini amalga oshirish usulidir [6].

Mahalliy iqtisodchi olimlardan A.Agzamovning fikricha, soliq nazorati mohiyatan tadbirkorlik subyektlari va fuqarolarning o‘z soliq majburiyatlarini to‘liq va o‘z vaqtida ado etishlari ustidan olib boriladigan davlat nazorati hisoblanadi.

Yana bir iqtisodchi olim G.Nestemovning ta‘biri bilan aytganda, soliq nazorati – davlat vakolatli organlarining soliq to‘lovchilarni davlat ro‘yxatiga qo‘yish, soliqlarni hisobga olish, soliq tekshiruvlarini amalga oshirish, shuning bilan birga, soliqlar to‘lanishi ustidan amalga oshiriladigan nazorat faoliyatining barcha sohalarini qamrab oladi [7]

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat soliq xizmati” to‘g‘risidagi Qonunida soliq nazorati tushunchasiga quyidagicha ta‘rif berilgan: “Soliq nazorati – soliq to‘lovchilarni, soliq solish obyektlarini va soliq solish bilan bog‘liq obyektlarni hisobga olishning, shuningdek, soliq to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya etilishini nazorat qilishning yagona tizimi hisoblanishi belgilab qo‘yilgan [8].

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqilsa, soliq nazorati maxsus vakolatli davlat organlari tomonidan amalga oshiriladigan davlat moliyaviy nazoratining turi hisoblanib, soliq nazoratini amalga oshirishdan quyidagi uchta asosiy maqsad ko‘zlanadi:

<b>№</b>	<b>Soliq nazoratining maqsadlari:</b>
<b>1.</b>	Soliq qonunchiligiga rioya etilishi;
<b>2.</b>	Soliq to‘lovchilarning va soliq obyektlarining o‘z vaqtida va to‘liq hisobga olinishini ta‘minlash;
<b>3.</b>	Soliq tushumlarining davlat budjeti va davlat maqsadli jang‘armalariga to‘liq va o‘z vaqtida undirilishini ta‘minlash.

Har bir huquqiy munosabatning tarkibi mavjud bo‘lganidek, soliq nazoratining ham tarkibi mavjud. Ular quyidagilar:

1. Soliq nazorati subyektlari;
2. Soliq nazorati obyektlari;
3. Soliq nazoratining mazmuni.

Ana endi biz ularning har biriga to'xtalamiz. Soliq nazorati subyektlari soliq-huquqiy munosabat ishtirokchilari bo'lib, soliq nazoratini amalga oshiruvchi davlat soliq xizmati organlarining mansabdor shaxslari, soliq to'lovchilar, mulkdorlar tomonidan yollangan auditorlik xizmati vakillari, bojxona xizmati xodimlari soliq nazorati subyektlari hisoblanadi.

Soliq nazoratining obyekti – Soliq kodeksida belgilangan soliqlar va yig'implarni undirish, soliqqa oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlikka tortish bilan bog'liq munosabatlar hisoblanadi.

Soliq nazoratining mazmunini soliq nazorati subyektlarining huquq va majburiyatlari tashkil qiladi.

Har bir soliq nazoratini amalga oshirishda uning maqsadini aniqlab olish lozim. Soliq nazoratidan quyidagi maqsadlar ko'zlanadi:

- Soliq to'lovchilar tomonidan soliq qonunchiligiga rioya qilinishi tekshirish;
- Hisobda turish qoidalari bajarilishini tekshirish;
- Soliq to'lovchilarning buxgalteriya hisobini to'g'ri yuritishi, soliqlarni to'g'ri hisoblab chiqarilishi, ularni budjetga o'z vaqtida va to'liq undirilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;
- Banklarning soliq qonunchiligi ijrosi bo'yicha majburiyatlarni bajarishi ustidan nazoratni amalga oshirish;
- Soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlarni aniqlash va ularni javobgarlikka tortish bo'yicha ishlarni amalga oshirish;
- Naqd pul muomalasiga oid qonunchilik normalariga rioya qilinishini tekshirish.

**Xulosa.** Soliq nazorati yaqinda shakllanib qolgan institut emas, soliq nazoratining shakllanishi soliqlarning joriy etilishi bilan bir davrga borib taqaladi. Soliqlar joriy etilgach, ularni undirish soliq nazorati instituti orqali amalga oshirilgan. Albatta, soliq nazorati o'sha davrlarda hozirgi shakl va mazmunga ega bo'lmagan, biroq soliq huquqiy munosabatlarni tartibga solisha muhim ahamiyat kasb etgan. Soliq nazorati davrlar o'tishi bilan rivojlanib XIX-XX asrlarga kelib ancha takomillashgan. Soliq nazorati soliq-huquqiy munosabatlarda alohida ahamiyat kasb etadi. Soliq nazoratini o'tkazishdan ko'zlangan maqsad faqatgina davlat budjetining daromad qismini vaqtida va to'liq shakllantirishdan iborat bo'lmay, soliqlarni to'lashdan qasddan bo'yin tovlab yurgan subyektlarni aniqlash, ularga nisbatan tegishli choralarni qo'llash, hisobotlarni to'ldirishda kamchiliklarga yo'l qo'yayotgan ayrim tadbirkorlik subyektlariga ko'maklashish va faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yishda amaliy yordam berishni ham o'z ichiga oladi. Umuman olganda, soliq nazorati soliqqa oid munosabatlarni tartibga solishga xizmat qiladi.

#### Adabiyotlar/Литература/References:

1. <https://www.irs.gov/irs-history-timeline>;
2. История налоговых проверок - Э.Н.Елькина, 2014;
3. Jumaev U.X. Rossiya imperiyasining Turkistondagi soliq siyosatining shakllanishi: asosiy bosqichlari va taraqqiyoti. Tarix. fan. bo'yicha fal. dokt. (PhD) diss. ... avtoref. – T., 2012. – 23 bet;

4. Soliq nazariyasi va tarixi. O'quv qo'llanma. Toshkent – 2022. 170-bet;
5. Isayeva Farida Babamuratovna – Soliq huquqi. Darslik – 2017. 74-bet;
6. Адвокатова А.С. Налоговый контроль в условиях модификации отношений налоговых органов и налогоплательщиков. Автореферат диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – М., 2013. – 26 с. // Advokatova A.S. Tax control in conditions of modification of relations between tax authorities and taxpayers. Abstract of the dissertation for the degree of candidate of economic sciences. – М., 2013. – 26 p;
7. Нестеров Г.Г. Развитие механизмов налогового контроля в системе обеспечения экономической безопасности. Автореферат дис. д.э.н. – М., 2010. С. 17.
8. O'zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi Qonuni <https://lex.uz/docs/-40158>.

# **O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI**

**I RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI**  
2025-yil, 23-iyun

**Mas’ul muharrir:** *F.T.Isanova*  
**Texnik muharrir:** *N.Bahodirova*  
**Diszayner:** *I.Abdihakimov*

**O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM  
ISTIQBOLLARI. II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi  
materiallari.** – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 138 bet.

**Elektron nashr:** <https://konferensiyalar.uz/uzbekistan-2030>

**Konferensiya tashkilotchisi:** Scienceproblems Team

**Konferensiya o‘tkazilgan sana:** 2025-yil, 23-iyun

**ISBN 978-9910-09-204-6**

**Barcha huquqlar himoyalangan.**  
© Scienceproblems team, 2025-yil.  
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.